



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTISIYALAR VA TASHQI SAVDO  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI O‘ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA  
SOLISH AGENTLIGI  
QARORI**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-noyabrdagi 677-sonli qarori bilan tasdiqlangan, “Attraksionlar xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglamenti kuchga kirishi bilan ushbu texnik reglament talablariga rioya etilishi ta‘minlanadigan standartlashtirishga doir hamda mahsulotlarning namunalarini olish, sinov va o‘lchov usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida**

“Attraksionlar xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglament (keyingi o‘rinlarda – texnik reglament) kuchga kiritilishi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuning 8 va 22-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi hududida:

2023-yilning 28-maydan mazkur texnik reglament talablariga rioya etilishi ta‘minlanadigan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq; mazkur texnik reglament bilan tartibga solinuvchi mahsulotlarning namunalarini olish, sinov va o‘lchov usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Standartlar instituti (A.Xamdamov) mazkur texnik reglament bilan tartibga solinadigan mahsulotlarga yangi standartlar (barcha toifadagi) qabul qilinishi to‘g‘risidagi ma‘lumot har oy yakuni bilan Texnik reglamentlar va standartlar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasiga kiritib borsin.

3. TR va SBDAO boshqarmasi (D.Xodjkariev) taqdim etilgan yangi standartlarni belgilangan tartibda ushbu qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan, umumiy texnik reglament talablariga rioya etilishi ta‘minlanadigan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar ro‘yxatiga kiritib borsin.

4. AKTJQ va RB (F.Usmanov) va TR va SBDAO (D.Xodjkariev) mazkur qaror bilan tasdiqlangan me‘yoriy hujjatlar ro‘yxatlari O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta‘minlasin.

5. MRO‘BYaTB (A.Dodoev) va “UzTest” DM (J.G‘aniev) mazkur qaror bilan tasdiqlangan me‘yoriy hujjatlar bo‘yicha sertifikatlashtirish idoralarini va sinov laboratoriyalari akkreditatsiya doirasini kengaytirish choralarini ko‘rsin.

6. Xo‘jalik va devonxona sho‘basi (Sh.Xudayberganov) ikki kun muddatda mazkur buyruq bilan Agentlikning markaziy apparati va tizim tashkilotlari rahbar xodimlariga yetkazilishini ta‘minlasin.

7. Ushbu qaror ijrosi ustidan nazorat Bosh direktorning o‘rinbosari A.Abdukayumov zimmasiga yuklatilsin.

**Bosh direktor**



**D. Sattarov**

O‘zbekiston texnik jihatdan  
tartibga solish agentligi 2022 yil  
13 yanvardagi TR-23 son qaroriga  
2-ilova

“Attraksionlar xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglamenti  
kuchga kirishi bilan ushbu texnik reglament talablagiga muvofiqligini  
baholash uchun mahsulotlarning namunalarini olish, sinov va o‘lchov  
usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ  
hujjatlar ro‘yxati

t/r	Standartni belgilanishi	Standartni nomi
1.	ГОСТ 23337-2014	«Шум. Методы измерения шума на селитебной территории и в помещениях жилых и общественных зданий»
2.	ГОСТ 23941-2002	«Шум машин. Методы определения шумовых характеристик. Общие требования»
3.	ГОСТ 32995-2014	«Материалы текстильные. Методика измерения напряженности электростатического поля (разделы 4 – 6)»
4.	ГОСТ ИЕС 60825-1-2013	«Безопасность лазерной аппаратуры. Часть 1. Классификация оборудования, требования и руководство для пользователей»
5.	ГОСТ 3242-79	«Соединения сварные. Методы контроля качества»
6.	ГОСТ Р 53487-2009	«Безопасность аттракционов. Оборудование надувное игровое. Требования безопасности. Методы испытаний»
7.	ГОСТ Р 56984-2016	«Безопасность аттракционов. Аэролифты. Оболочка. Требования безопасности. Методы испытаний»
8.	ГОСТ Р ИСО 17637-2014	«Контроль неразрушающий. Визуальный контроль соединений, выполненных сваркой плавлением»

9.	ГОСТ EN 14127-2015	«Контроль неразрушающий. Ультразвуковая толщинометрия»
10.	ГОСТ Р ИСО 3834-3-2007	«Требования к качеству выполнения сварки плавлением металлических материалов. Часть 3. Стандартные требования к качеству»
11.	ГОСТ Р 55724-2013	«Контроль неразрушающий. Соединения сварные. Методы ультразвуковые»
12.	ГОСТ Р ИСО 9934-1	«Контроль неразрушающий. Магнитопорошковый метод. Часть 1. Основные требования»
13.	ГОСТ Р 56066-2014	«Безопасность аттракционов. Методы измерения ускорений, действующих на пассажиров аттракционов»
14.	ГОСТ Р 52169-2012	«Оборудование и покрытия детских игровых площадок. Безопасность конструкций и методы испытаний. Общие требования. Приложение Г»
15.	ГОСТ 22648-77	«Пластмассы. Методы определения гигиенических показателей»